

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**"TASDIQLAYMAN"**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori Sh.S.Sharipov  
2024-yil

**13.00.01 – PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK  
TA'LIMOTLAR TARIXI IXTISOSLIGI BO'YICHA  
TAYANCH DOKTORANTURAGA (PhD) va STAJOR-  
TADQIQOTCHILIKKA KIRUVCHILAR UCHUN  
“MUTAXASSISLIK FANI” DAN SINOV  
DASTURI**

**13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Ta’limotlar tarixi”** ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktaranturaga (PhD) kiruvchilar uchun kirish imtihonlarini o‘tkazish dasturi Pedagogika va psixologiya fakulteti Kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar:



pedagogika fanlari doktori, professor A.Nurmonov



pedagogika fanlari nomzodi, dotsent I.To’raqulova

## KIRISH

Mazkur dastur 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktaranturaga kiruvchilarga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Xalqimizda “Ta’lim va tarbiya- beshikdan boshlanadi”, degan hikmatli so’z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzlusiz ta’lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug’ilganidan boshlab 30 yoshgacha bo’lgan davrda uni har tomonlama qo’llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o’rin topishi uchun ko’mak beradigan, yaxlit va uzlusiz tizim yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat anday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko’rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz.”<sup>1</sup>

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o’tmoqdamiz. Bu bejizga emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya, bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”<sup>2</sup>. Bu metodologik qarash falsafiy bilimlar to‘g‘risidagi nazariy va amaliy tasavvurlarni o‘zgartirib, jamiyat taraqqiyotining yangi asoslarini ishlab chiqilishini taqozo etadi. Chunki, taraqqiyot tamoyillari, ijtimoiy-iqtisodiy vogelikka yondashuv xususiyatlari va paradigmalari doimiy ravishda o‘zgarib, takomillashib boradi, ikkinchidan, ijtimoiy hayot va milliy taraqqiyot, uning tarixiy o‘zgaruvchan xarakteri, dinamik murakkabligi, ijtimoiy subyekt rivojlanish darjasи, uning imkoniyatlari, hayotiy ehtiyojlar nisbati va ularni qanoatlashtirish, iqtisodiy va siyosiy turmushni o‘z ixtiyori asosida qurishga to‘la erkinlik, xususiy mulkka asoslangan manfaatlар (ehtiyojlar) ustuvorligi, insoniy birliklar, guruhlarning sotsial aloqalari va munosabatlari, sotsial sifat va ijtimoiy infrastruktura, demokratik qadriyatlar va o‘zini-o‘zi boshqarish kabi hodisalarni ijtimoiy falsafiy tahlil qilish, jamiyatning sohalari transformatsiyasini chuqur, har tomonlama o‘rganish va ilmiy xulosalarni shakllantirish zaruriyatini ifodalaydi.

Dastur davlat ta’lim standartlari talablari asosida tuzilgan. Dasturda Pedagogika nazariyasi va tarixining mustaqil sohasini o‘zida mujassamlashtirgan: pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat kabi fanlarining

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.-416 bet

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -T.: O‘zbekiston, 2018. -B. 88.

shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta'lim muassasalarini boshqarish, korreksion pedagogika asoslarini o'z ichiga qamrab oladi.

## **ASOSIY QISM.**

### **Pedagogika nazariyasi va tarixi.**

Pedagogika nazariyasi va tarixi bosqichlari, tamoyillari, yo'naliishlari, qonuniyatlarning o'ziga xos ekanligi to'g'risida talabgorlarga chuqur bilimlar berish o'quv fanining asosiy maqsadidir.

Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obyekti, metodlari. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Ta'limning uzviyligi va uzlusizligi. Uzlusiz ta'lim. Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, shu jumladan falsafa, psixologiya fanlari bilan aloqasi. Pedagogik antropologiya. Shaxs, ta'lim va tarbiya. Xorijiy mamlakatlardagi tarbiyaga qisqacha izoh. Yagona pedagogik jarayon. Didaktika – ta'lim nazariyasi. Didaktik prinsiplar (tamoyillar). O'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari. Ta'limning psixologik, fiziologik asoslari. Ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylilik va boshqa prinsiplar. Ta'lim jarayonida motivatsiya.

Ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari. Umumiy va xususiy metodlar.

### **Tarbiyaviy ishlar metodikasi.**

Tarbiya jarayoni, muhiti(sotsium), tarbiya prinsiplari, tarbiyaga qo'yiladigan talablar. Tarbiyaning metod va texnologiyalari. Milliy tarbiya masalasi. Tarbiya turlari. Tarbiya va milliy g'oya. Tarbiya va ma'naviyat. Oila tarbiyasi, tarbiyaviy ishlar metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari, tarbiyaviy ishlarda sistemalilik, tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligini baholash tamoyillari, məktəbdə o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish metodikasi, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tahlil qilish.

### **Ijtimoiy pedagogika**

Ijtimoiy pedagogikaning muammolari va ularning turli tarixiy davrlarda hal etilish yo'llari. Hozirgi sharoitda ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi. Fanni o'qitishdan maqsad–bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida ijtimoiy tarbiya va ijtimoiy ta'lim qonuniyatlarini o'zlashtirish. Fanning

vazifasi—gumanitar bilishning sohasi sifatida ijtimoiy pedagogika, uning obyekti, tadqiqot predmeti va asosiy kategoriyalari haqida nazariy bilimlar berishdan iborat.

### **Oila pedagogikasi**

Oila pedagogikasi-fan sifatida. Chet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanishi tarixidan. O'zbekistonda oila pedagogika fanining rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy asoslari. Oila va uning vazifalari. Oilaning turlari. Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari. Oila tarbiyasi mazmuni va mohiyati. Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari. Oilada bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari. Ta'lim muassasasi, o'qituvchilar, sinf(guruh)rahbarining o'quvchilarning ota-onalari bilan olib boradigan ishlari shakl va metodlari.

### **Pedagogik konfliktlogiya**

Pedagogik konfliktlogiyaning mohiyati, obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo'lishi. Pedagogik konfliktlogiyaning fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanishi. Konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida: konfliktogenlar. Nizo, uning mazmuni va turlari. Konflikt signallari. Agressiya va zo'ravonlik haqida tushuncha. Uning mohiyati. Konfliktli vaziyatda g'azab va qahr. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarning o'ziga xos xususiyatlari. Konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning roli. Jamoadagi konflikt va uni yechimga olib kelish yo'llari. Pedagogik konfliktlogiyada tana zaboni. Muomala madaniyati va to'g'ri muloqot qoidalari. O'zgani anglash (eshitish) va o'zini anglatish qoidalari. Konfliktlarni boshqarish tartiblari va usullari. Konfliktlarni bartaraf etishda "Mentasdiqlar" (Men murojaat) usuli. Konflikda "G'olib-G'olib" strategiyasi va uning amal qilish tamoyillari. Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari. Pedagogik konflektlogiyada tolerantlik tushunchasi va mediatsiya qoidalari.

### **Pedagogik texnologiya.**

Pedagogik texnologiya tushunchasi va ta'rifi: pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayoni, o'quv muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi metod va shakllariga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiya: o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiya, muammoli o'qitish, dasturli o'qitish, o'qitishning axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasi, o'qitishning takomillashib borish texnologiyasi, o'yinli texnologiyalar, modul texnologiyasi, interaktiv texnologiyalar, bilimlarni nazorat qilish texnologiyasi. Texnologik karta.

### **Qiyosiy pedagogika**

"Qiyosiy pedagogika" mustaqil fan sifatida. Qiyosiy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning dolzARB yo'naliishlari. Qiyosiy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari. Pedagogik tizimlarni taqqoslash texnologiyasi va tadqiqot qilish bosqichlari. Qiyosiy pedagogikada tadqiqotlar tipologiyasi va OCPYularida ta'lim variativligi. Oliy ta'lim tizimining tipologik-

tasnifiy mezonlari va ta'lim muassasalari nufuzi. Qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati. Osiyo mamlakatlarida ta'lim -tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili. AQSH va Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil. Jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari.

### **Pedagogik fikrlar taraqqiyoti**

Pedagogik fikrlarning sho'ro davridagi rivoji. Mustaqil O'zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Jahonda eng qadimgi davrlarda pedagogik g'oyalar. O'rta asrlarda jahon pedagogik fiklar taraqqiyoti. Yangi davrda va Maorif davrida Yevropada pedagogik fikrlarning rivojlanishi. XIX asrda G'arbiy Yevropada pedagogik fikrlarning rivojlanishi. XIX asr jahon pedagogikasi klassiklarining pedagogik asarlari. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida reformatorlik pedagogikaning konsepsiyalari va g'oyalari. XX asrda mustaqil davlatlar hamdo'stligida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. XXI asr pedagogikasi.

### **Pedagogikaning konseptual asoslari**

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash yo'nalishlari. Ta'limiy konsepsiyalarning umumiy tavsifi, mazmuni va mohiyati. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplari va ularni amaliyatga joriy etish yo'llari. Pedagogik tizimlarni loyihalashtirish. Hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari. Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning konseptual asoslari. Bo'lajak o'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligini tarkib toptirish modellari. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash. Ta'lim paradigmalari. Ta'lim mazmunini belgilashga doir konsepsiylar. Ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlari. O'quv materiallarni tizimlashtirishning didaktik parametrlari. Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazish. Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir yondashuvlar. Tarbiya paradigmalari. Tarbiya qonuniyatları va tamoyillari. O'quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. O'quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish. O'quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish. O'quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi kompetentligini shakllantirish. O'quvchi-yoshlarda global fikrlashni shakllantirish. Pedagogik hamkorlikning konseptual g'oyalari. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari. Ta'lim tizimida sifat va raqobatbardoshlikka erishish omillari. Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirish. Pedagogik antropologiya – shaxs va jamiyat integratsiyasi omili sifatida. Kattalar ta'limining antropologik va androgogik tasnifi.

## **Pedagogik diagnostika va korreksiya**

Pedagogik diagnostikaning predmeti va tarixiy rivoji. Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq etishning umummilmiy tamoyillari va darajalari. Pedagogik diagnostikaning umumiy metodlari, Ta'lim-tarbiya jarayonida o'lchash va shkalalashning asosiy yo'nalishlari. Uzluksiz ta'limda pedagogik nazoratni tashkil etishning ilmiy asoslari. O'quv jarayonini tashkil etishning umumiy diagnostikasi. O'quvchilarning aqliy rivojlanish diagnostikasi. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxis etish. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda pedagogik diagnostika. Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis etish. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis etish. Pedagogik diagnostika asosida uzluksiz ta'limda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish. Korreksion faoliyatning mazmun-mohiyati. Korreksion faoliyatning asosiy tamoyillari. Korreksion faoliyatni tashkil etish bosqichlari. Korreksion faoliyatning umumpedagogik va maxsus metodlari.

### **Ilmiy tadqiqot metodologiyasi**

Ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda ilmiy izlanish, ilmiy dalillarning rolini anglash, bilimdan asosiy metodologik vosita sifatida foydalanish, ilmiy tadqiqot jarayonida muammoni to'g'ri qo'yish va uning yechimini topish texnologiyasi, axborot va axborot texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati, ilmiy ish ma'nosini tushunishning ahamiyati, ilmiy tadqiqot jarayonida olim mas'uliyatining ahamiyatini o'rganish.

### **Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish texnologiyasi**

Innovatsion jarayonlar rivojining umumiy tendensiyalari. O'qituvchi innovatsion faoliyatining ijtimoiy-madaniy masalalari. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning tarixiy-pedagogik shart-sharoitlari. Akmeologik yondashuv asosida o'qituvchining innovatsion faoliyatini modellashtirish. O'qituvchi innovatsion faoliyatida motivatsiyaning o'rni. Kreativlik o'qituvchi innovatsion faoliyatining muhim xususiyati sifatida. O'qituvchi innovatsion faoliyatining operatsion komponentlari. O'qituvchi innovatsion faoliyati tuzilmasida refleksianing o'rni. O'qituvchi innovatsion faoliyati modelini ishlab chiqish tajribasi. Innovatsionlik pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida. O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligini tashxis etish metodikasi. O'qituvchi innovatsion faoliyatida psixologik to'siqlar profilaktikasi. Bo'lajak o'qituvchilarning vaziyatli yangiliklar kiritishga munosabatini eksperimental o'rganish. Individual faoliyat uslubini rivojlantirish o'qituvchilarni innovatsion tayyorgarligini oshirish sharti sifatida. Refleksiv-innovatsion texnologiyalar.

**FOYDALANILADIGAN DARSLIKLER VA O'QUV  
QO'LLANMALAR RO'YXATI**  
**Rasmiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T.: “O'zbekiston”, 2019
2. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonuni.2017 yil 3 yanvar, O'RQ-419-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2020 yil 6 noyabr.

**Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022.-416 bet
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: “O'zbekiston”, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.-T.: “O'zbekiston”, 2017
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari.4-jild.-T.: “O'zbekiston”, 2020
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021
7. Karimov I.A. Asarlar to‘plami.1-19 jiddlar. – T.: “O'zbekiston”, 1996-2011.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat” 2008 .

**Darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, kitoblar, risolalar**

9. Ishmuxammedov.R.J va boshqalar. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar.T.: Iste'dod jamg'armasi -2010 y.
10. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.
- 11.F.A.Raxmatova-Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: POYTAXT EXCLUSIVE, TOSHKENT- 2023.
12. Maydanov A.S. Metodologiya nauchnogo tvorchestva. -M., 2008.
13. To'raqulov X.A, Hasanov J.J, Usmanov N.O', Shalqarov I, To'raqulov O.X Ilmiy tadqiqot asoslari. –T.Fan va texnologiya, 2011.

14. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. –Т., 2009. – 436 b.
15. Ануфриев А.Ф.Научное исследование: курсовые, дипломные и диссертационные работы. – М., 2002.
16. Dadaboyev H. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. – Т., 2003.
17. Yoqubova M. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashuv va axborot texnologiyalarining ahamiyati. –Т.: Universitet, 2006. -28 b.
18. Rahmatullayev Sh. Ilmiy ish olib borish asoslari (konspektiv kurs). -Т.: ToshDU nashriyoti, 1988.
19. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. - Т.: O'qituvchi, 2001.
20. Hasanboyeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. - Т.: 2008.
21. Кукушин В.С. Теория и методика обучения. - Роцв-на-Дону.: Феникс, 2005.
22. Кукушин В.С. Теория и методика воспитания. - Роцв-на-Дону.: Феникс, 2006.
23. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. - Т.: 2005.
24. Axmedova M .T. Pedagogik konfliktologiya. (O'quv qo'llanma) - Т ., 2014.
25. Ibragimov X ., Yo'ldoshev U. va boshqalar. Pedagogik psixologiya (o'quv qo'llanm a) -Т ., 2009 y.
26. Нурманов А.Т., Турганов Ё.И-. Педагогик маҳорат (риторика бўйича педагогика олий таълим муассасалари талабалари учун ўқув қўлланма). Текст: ўқув қўлланма / А.Т.Нурманов.- Тошкент, "ZEBO PRINT", 2022. - 164 б

#### **Internet resurslari**

27. <http://library.ziyonet.uz>
28. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/13Pedagogika-nazariyasi-va-tarixi-2010-darslik-R.Mavlonova-va-bosh.pdf>
29. [https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_1020\\_20210520.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_1020_20210520.pdf)